

DUNYODA MAYMUN CHECHAGI KASALLIGINING TAHLILIY KO'RSATKICHLARI VA KASALLIKNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN TADBIRLAR

Bazarova Gulnora Rustamovna

Alfraganus university, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

g.bazarova@afu.uz

Orcid Id:0009-0006-7621-2642

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17577444>

Annotatsiya: Yer yuzida Maymun chechagi kasalligi mamlakatlardagi tarqalishi bo'yicha kasallanish va o'lim holatlari ifodalangan. Ushbu kasallikni tarqalishini oldini olishdagi bajarilayotgan chora-tadbirlar va e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihatlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maymun chechagi kasalligi, bemorlar soni, o'lim ko'rsatkichi, kasallik tabiiy o'choqlari.

Dolzarbli. Butun Jahon sog'likni saqlash tashkiloti (BJSST) ning ma'lumotlariga asosan har yili dunyoda 15 millionga yaqin odam o'tkir virusli kasalliklardan vafot etadi. Ushbu ko'rsatkichga yana bir million virusli kasallik asoratlari natijasida markaziy asab tizimi falaji, yurak, jigar, buyrak-siydik, oshqozon-ichak yo'li kasalligidan nobud bo'lgan odamlarni qo'shadigan bo'lsak, boshqa o'ta havfli infeksiyalar kabi Maymun chechagi kasalligi bo'yicha ham epidemiologik vaziyat o'zgarmoqda.

Material va usullar. So'ngi yillarda Afrika davlatlarida, shu bilan bir qator Yevropa davlatlarida, shuningdek, Avstraliya, AQSh, Kanada va boshqa mamlakatlarda maymun chechagi virusi bilan kasallangan bemorlar qayd etildi. BJSSTning Afrika Ittifoqi tibbiy xizmati – Afrika Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlarida olib borilgan ishlarning xabar berishicha dunyo bo'yicha ushbu kasallik bilan 2022 yil yanvardan 2024 yil shu kungacha 120 davlatda 100 000 nafardan ortiq bemor laboratoriya tekshiruvi orqali tashxisi tasdiqlangan bo'lib, shundan 220 nafardan ortiq bemor vafot etgan. Ma'lumotlarga ko'ra so'nggi 7 kun ichida 2167 ta bemor aniqlangan bo'lib, bu o'tgan haftaga nisbatan 20,6 foizga kam.

Mikrobiologiyada Maymun chechagi – zoonoz, tabiiy o'choqli, o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, odamlar va hayvonlarda kamdan kam holatlarda uchraydigan, **Orthopoxvirus**, **Poxviridae** - poksviruslar oilasiga mansub viruslar keltirib chiqaradigan kasallikdir. Qo'zg'atuvchi morfologiyasi, antigenlik va kultural xususiyatlari chin chechak (natural ospa) virusiga juda yaqin. Uning manbai maymunlar bo'lib, kasallik ular bilan bevosita yaqindan muloqotda bo'lganda havo-tomchi yo'li orqali yuqadi. O'tkir davrida bemor oila a'zolariga yuzma-yuz aloqa, teri yoki terining shikastlanishi bilan to'g'ridan to'g'ri jismoniy aloqa, ifloslangan kiyim-kechak, choyshab yoki idishlar, boshqa materiallar bilan aloqa qilish (kontaktda bo'lishi) orqali yuqishi mumkin. Bu kasallikni yuqtirishning oldini olish uchun uning yuqish yo'llaridan xabardor bo'lish kerak. Maymun chechagi odamlarga kasal odam yoki hayvon bilan yaqin aloqada yoki virus bilan kasallangan materiallar bilan, ya'ni chiqindilar, tana suyuqliklari, nafas olish tomchilari va ifloslangan materiallar bilan yaqin aloqada va jinsiy aloqa orqali yuqadi. Ko'proq o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalarda qayd etiladi. Bu kasallik isitma va sovuqqa o'xshash alomatlar bilan boshlanadi va vaqt o'tishi bilan yiringli yaraga aylangan qizil teri toshmalarini keltirib chiqaradi. Bu teri toshmalarining taxminan 95 foiz yuzda, 75 foiz kaft va oyoq tagida, 30 foiz jinsiy a'zolarida paydo bo'ladi. Ushbu asoratlar og'izning shilliq qavatini ham qamrab olishi mumkin.

Shuningdek, ushbu virus ko'zning shox pardasi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi va og'ir holatlarda ko'rlikka olib kelishi mumkin. Teri toshmali vaqt o'tishi bilan kuchayadi va bu teri toshmali asta-sekin sarg'ayadi. Og'ir holatlarda bu jarohatlar terining katta joylarini qattiq zararlaydi. Kasallikning rivojlanishi bilan virus miya va orqa miyaga yetib boradi va bu sohada yallig'lanishni keltirib chiqaradi, bu esa miya shikastlanishiga va o'limga olib kelishi mumkin. Ushbu kasallikning belgilari ko'pincha 6 dan 13 kungacha paydo bo'ladi va hatto 5 dan 21 kungacha davom etishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bu davr ikki-to'rt hafta davom etishi mumkin va og'ir holatlar bolalar orasida ko'proq uchraydi. Isitma, bosh og'rig'i, mushak og'rig'i, charchoq, bel og'rig'i, shishgan limfa tugunlari bu kasallikning boshqa belgilaridir. Maymun chechakning chin chechakdan farqi shundaki, maymun chechakda limfa tugunlarining shishishi kuzatiladi. Maymun chechak va suvchechak o'rtasidagi farq shundaki, maymun chechakda burun oqishi va yo'tal kabi alomatlar ko'rinmaydi. Maymun chechak va o'lat kasalligi o'rtasida o'xshashlik va farqlar mavjud. O'lat va maymun chechagi ham odamlar va hayvonlar o'rtasida keng tarqalgan yuqumli kasalliklar bo'lib, o'latni bakteriyalar chaqiradi, ularni davolash uchun emlash ham mavjud. Ushbu ikki kasallik o'rtasidagi yana bir o'xshashlik - bu nafas olish va aloqa orqali odamlarga yuqishidir. Maymun chechagining qo'zg'atuvchisi - odamga maymunlar orqali yuqadigan virus. Ammo o'lat kasalligi gram-manfiy *Yersinia pestis* bakteriyasi keltirib chiqaradigan yuqumli bakterial kasallikdir. O'lat kasalligi odamlarga asosan kasallangan kemiruvchilarning tana burgalari orqali yuqadi.

Ko'pincha Maymun chechagi G'arbiy va Markaziy Afrika hududida uchraydi. Ushbu mintaqadan tashqarida uning tashuvchisi ushbu hududdan borgan odamlar va jonivorlar hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra kasallik birinchi marta 1958 yil Daniyadagi ilmiy tekshiruv markazida saqlanayotgan maymunlarda topilgan. Insonlarning birinchi marta kasallanish holati to'qqiz oylik o'g'il bolada 1970 yilda Kongo Demokratik Respublikasida (avvalgi Zair) Basankusu shahrida qayd etilgan. JSST tomonidan olib borilgan epidemiologik kuzatuvda 1981-1986 yillarda KDR (Zair)da 338 ta holat ro'y berib, 38 nafarida o'lim sodir bo'lgan. Maymun chechagining chaqiruvchisi virus bo'lib, rasman 1980 yilda chin chechak vaksinasi natijasida yo'q qilingan. Maymun chechagining birlamchi alomatlari — isitma, qattiq bosh og'rig'i, limfa tugunlarining yallig'lanishi (90 foiz limfadenit), (ko'plab shunga o'xshash kasalliklardan asosiy farq qiladigan jihati), bel va mushaklardagi og'riq, ko'ngil aynishi, kuchli holsizlik kuzatiladi. U yengil va o'rtacha og'irlikda kechadi. Asosan chin chechakka qarshi emlanmagan fuqarolarda kuzatiladi. Yashirin davri 9-19 kun bo'lib, kasallik davomiyligi 2-3 haftaga cho'ziladi. Harorat ko'tarilganidan 3-4 kun o'tgach, bemorda toshmalar paydo bo'la boshlaydi — asosan yuz, kaft va oyoq qismlarida 6-10 mm. kattalikdagi toshmalar (dog'lar), papulalar paydo bo'ladi. Toshmalar shilliq pardalar, jinsiy a'zolar va ko'zlarda ham paydo bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan toshmaning ko'rinishi o'zgaradi va suyuqlik to'lgan pufakchalar (vizikula)ga aylanadi. Bu kasallikning 7-8 kunlariga to'g'ri keladi va bemorda taxikardiya, nafas olishning tezlashishi, qon bosimining tushishi kabi klinik belgilar namoyon bo'ladi. Ba'zan o'lim holatlariga olib kelishi mumkin. Vaqt o'tib, bemor tanasidagi toshmalar (vizikula) pufakchalar asta yo'qolib, qovuzoq (qaloq) paydo bo'ladi. Toshmalar o'rnida chandiqlik paydo bo'ladi va bemorning umumiy xolati yaxshilana boshlaydi. **Natijalar.** Hozirgi kunda maymun chechagi virusining ikki turi mavjud. Kuzatilayotgan holatlar yengilrog'i bilan bog'liq. Afrika mamlakatlarida bu kasallikdan o'lim darajasi 3,6 foizni tashkil

qiladi. Hammadan ko'proq bolalar va immuniteti zaif odamlar xavf ostida qolishadi. Ammo shuni hisobga olish kerakki, Afrika mamlakatlaridagi barcha bemorlar ham sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Ya'ni, infeksiya Yevropa va Amerikaga kelgan amaldagi vaziyatda o'lim darajasi past bo'lish ehtimoli borligi, hozircha may oyida kuzatilgan maymun chechagi virusi bilan kasallanganlarning hech biri vafot etmaganligi ko'rsatib o'tilgan. Misol uchun, 2003 va 2021 yillarda bir nechta yuqtirgan odamlar kuzatilganligi sababli Nigeriyaga sayohat qilish uchun ehtiyot bo'lish tavsiyalari berilgan. Belgiya 2022-yil may oyi boshida maymun chechagining to'rtta holati haqida xabar berganidan keyin dunyodagi birinchi davlat sifatida ushbu kasallikka chalingan bemorlarga 21 kunlik majburiy karantin joriy qildi. Shu bilan birga, Eron Sog'liqni saqlash vazirligining Yuqumli kasalliklar bo'limi boshlig'i Maymun chechagi bilan kasallanganligi gumon qilingan 6 nafar bemorning shaxsi aniqlangani va ulardan 5 nafaridan namuna olingani, 5 nafarining ham tahlil natijalari salbiy bo'lganini ma'lum qildi. Shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklarining Sog'liqni saqlash muassasasida G'arbiy Afrikaga sayohat qilgan sayohatchida bitta holatni aniqladilar. 2022 yil 2 iyulda Rossiya iste'molchilarni himoya qilish nazorat deportamenti Rossiyada maymun chechak bilan kasallanishga shubhali birinchi holati haqida xabar berdi. Portugalyadan qaytgan Sankt Peterburglik erkak toshmalar toshishi bilan bog'liq kasalligi to'g'risida o'zi yashayotgan joydagi tibbiyot muassasasiga murojaat qilgan. ma'lumki, bemorda kasallik yengil shaklda sodir bo'lgan. U kasalxonada yotqizilib, alohidalangan va u bilan aloqada bo'lganlarning barchasi shifokorlar tomonidan kuzatilgan — maymun chechagi hech kimda tasdiqlanmagan. Bundan tashqari Gonkondan (Xitoy Xalq Respublikasi) Sankt Peterburgga kelgan ikki sayyohda maymun chechagi kasalligi aniqlangan va zarur chora-tadbirlar o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasida ushbu kasallik ro'yxatga olinmagan.

Xulosalar. Butun dunyoda korona virusi epidemiyasi avj olganidan so'ng, shunga o'xshash holatlar yuzaga kelishidan xavotirlar paydo bo'lishi tabiiy. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda maymun chechak xavfi jiddiy va Afrikadan tashqari mamlakatlarda ham tarqaldi. Ushbu tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, qisqa vaqt ichida ushbu kasallikning nisbatan yuqori tarqalishiga qaramay, bu kasallik Korona virusi kabi global epidemiyaga aylanmaydi. Shuningdek, ushbu virusning yuqishi bevosita teridan teriga yoki ushbu virus bilan kasallangan sekresiyalar bilan aloqa qilish orqali sodir bo'lganligi sababli, u kamroq yuqumli kuchga ega va epidemiya ehtimoli kamroq bo'ladi. Bu kasallik virus ham, yangi kasallik ham emas, shuning uchun oldini olish bo'yicha tavsiyalarga e'tibor berish yaxshiroqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Butun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari. www.who.int.
2. Borovikova Z.V. Ospa i vaksinatсия: istoricheskiy aspekt. Vestnik obщestvennykh i gumanitarnykh nauk. 2021;2(4):19-23.
3. Epidemiologicheskaya situatsiya v mire po infektsionnym zabolevaniyam, imeyushim mejdunarodnoe znachenie. www.bzcgie.by.
4. [Factsheet for health professionals on mpox \(monkeypox\) \[Elektronnyy resurs\]](#)
5. Los Angeles County Department of Public Health ph.lacounty.gov/Monkeypox 10/28/22 – Monkeypox Vaccine Frequently Asked Questions (Russian) 1-6 r.